

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI



**TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA AKT SOHASIDA
KASB TALIMI FAKULTETI**

AKT sohasida kasb ta'limi yo'nalishi 102-16 guruhi talabasi Ametov
Sardorbekning "Ta'lim tizimini boshqarish" fanidan

Mustaqil ishi

Bajardi: _____ Ametov S .

Qabul qildi: _____ Allamuratov. Sh.

Nukus 2020

Mavzu: Ta`limni boshqarishda tizimli yondashuv

Reja:

I.Kirish.

II.Asosiy qisim

2.1 Ta`limni boshqarishda tizimli yondashuv

2.2 Ta`lim tizimida samaradorlik va tejamkorlik tamoyillaridan foydalanish samaradorligi

2.3 Ta`lim tizimi Boshqarishni turlari

III.Xulosa

IV.Foydallanilgan adabiyotlar

Kirish

Boshqarish ijtimoiy-gumanitar fanlarning muhim muammolaridan hisoblanadi. Uning nazariy asoslarini hamda ijtimoiy munosabatlar tizimidagi ahamiyati va o'rnini aniqlash, ijtimoiy muammolarni yechishdagi yo'naltiruvchilik imkoniyatini belgilash mustaqillik sharoitida juda dolzarb masala hisoblanadi. Chunki mamlakatimiz bozor munosabatlari hamda u bilan bog'liq ko'p mulkchilik sharoitida rivojlanishi boshqarish oldiga yangi muammolarni qo'yimoqda. Bunday sharoitda boshqarishning ilmiy asoslangan yo'naltiruvchi ta'siri ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning o'ziga xos rivojlanish asosi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa ijtimoiy hayotning hamma sohalarini erkinlashtirish va liberalashtirish boshqarishni ahamiyatini pasaytirmaydi, balki o'ziga xos mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Boshqarish ijtimoiy hodisa sifatida murakkab jarayondir. Shuning uchun unga har tomonlama yaxlit, tizimli yondashish lozim. Bunda tadqiqotning mantiqiy - gnoseologik, tarixiy va sotsiologik (ijtimoiy) tomonlarini yaxlitlikda qarash muhimdir. Shu asosda uning amal qilish mexanizmlarini ochish, moddiy va ma'naviy, ob'ekt va sub'ekt munosabatlari tarzida tahlil qilish imkoniyati ochiladi. Jamiyat taraqqiyotidek, boshqarish ham tarixiy xarakterga ega. Shuning uchun jamiyat va ilm-fanning rivoji har bir sohaning boshqarishini maqsad va vazifalari, shakl va metodlari, tuzilishini, prinsiplarini, tarixiy burilish davrlarida metodologiyasini o'zgarishiga olib keladi. Tarixiylik boshqarishni vujudga kelishi, shakllanishi bosqichlari va rivojlanishini tarixiy jarayon sifatida qarash asosida uning tarixiy tiplarini hozirgi holati bilan solishtirib takomillashtirishni ta'minlaydi.

2.1 Ta'limni boshqarishga tizimli yondashuv

Tizim haqida tushuncha. Tizim (sistema) uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar birligi bo'lib, uning tuzilishi yaxlitligini ta'minlash bilan birga rivojlanish yo'nalishini hamda maqsadini belgilaydi. Tizim o'z tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlar asosida bir holatdan ikkinchi holatga o'tadi va unda yangi xususiyatlar paydo bo'ladi. Tabiat, jamiyat texnikani o'rganish, tahlil qilishda keyingi vaqtda ilmiy tafakkurning erishgan yutuqlari asosida tizimli yondashish tobora ko'proq rasm bo'lmoqda. Tizimli yondashuvning narsa-hodisalarni moddiy olamning turli tomonlarini o'rganishda oddiy, ya'ni uni alohida, o'z holicha - yakka holda, atrofdagi muhit bilan bog'lanishlarini inobatga olmay o'rganishdan qator ustunligi mavjud. Tabiat, jamiyatdagi jarayonlarni o'z holicha tahlil qilish ularning boshqa hodisalar, jarayonlar bilan bog'liqligini, kelib chiqishi, rivojlanishi, istiqbolini aniq ko'rish imkoniyatini bermaydi. Tizimli yondashuvda narsa-hodisalarning mavjud muhitdagi o'rni, uning boshqa atrofdagi narsa-hodisalar bilan bog'liqligini ochish ancha osondir. Shu asosda uning o'tmishini, hozirgi holati va istiqbolini bilib olish mumkin. Buning uchun tizim tarkibiy qismlari (komponentlari)ning umumiy tizimidagi har birining bajaradigan vazifasi, ularning o'zaro bog'liqligi va munosabati alohida-alohida va so'ngra yaxlitligicha tahlil qilinadi. Tarkibiy qismlarning har birining vazifasi aniqlanib, umumiy maqsad va natija belgilanadi. Bunda ilmiy tadqiqotning bir necha metodologik tamoyillariga rioya qilish zarurdir. Chunonchi, oddiydan murakkabga, yakka, alohidalikdan umumiylikka, tarixiylikdan mantiqiylikka o'tish o'rganilayotgan ob'ekt uchun muhim bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari ijtimoiy hodisalarni, ayniqsa inson faoliyati bilan bog'liq tizimlarni o'rganishda yuqoridagilardan tashqari insoniy sifatlar va faoliyat nuqtai-nazaridan o'rganish ham tizimli yondashuv uchun ham juda muhimdir. Bularsiz inson faoliyatining qirralari, ular o'rtasidagi aloqadorlikni to'la ochish mumkin emas. Tizimli yondashuv metodologik tamoyil sifatida o'rganilayotgan ob'ektni yaxlitligicha va qismlarga bo'lib o'rganishni to'la amalga oshirish imkoniyatini beradi. Masalan, K.Z.Zaripov o'qituvchilar malakasini oshirishni tizimli yondashuv asosida tadqiq qilib, an'aviy shakllari (norasmiy muloqot,

tashviqot, san'at, madaniyat)ni ular kasbiy mahoratini oshirish shakli ekanligini asosladi. Tizimlar mavjudligi va bajaradigan vazifasi jihatdan tabiat, texnik, ijtimoiy tizimlarga bo'linadi. Tizim mavjud bo'lishi yoki faoliyat ko'rsatishi uchun ma'lum tuzilishga ega bo'lishi va uni ichki barqarorligi, bog'liqligini ta'minlovchi, munosabatlarni shakllanishi zarur. Uning tuzilishi o'z navbatida tarkibiy qismlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka mazmun hamda tashkiliy tomondan belgilab beradi. Har qanday tizim ob'ektiv olamda mutlaqo alohida faoliyat ko'rsata olmaydi. U o'zidan boshqa katta tizimning tarkibiga kiradi.

Tizimli yondashuv pedagogik hodisalarni tadqiq qilishda ular mohiyatini chuqur anglash, qismlarga bo'lib va yaxlitlilgicha tahlil qilish asosida bog'lanishlarni ochish imkoniyatini beradi. Tizimli yondashuv pedagogik hodisalar va qonuniyatlarni bir butun va uning tashkil etuvchi qismlar, umumiylikdan xususiylikka qarab tahlil qilish asosida ular o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni gnoseologik mohiyatini ochish, tizimni tashkil etuvchi qismlar umumiy tizimda o'rni, bajaradigan funksional vazifalarini aniqlash orqali har birini o'ziga xos tomonlarini aniqlash demakdir. Pedagogik jarayonlarni tizim asosida tadqiq qilishda olimlardan F.F.Korolyov, N.V.Kuzmina, N.F.Talizina, T.A.Ilina, K.Z.Zaripovlar shug'ullanganlar. Tadqiqotlarda tizimli yondashuvni qo'llash eng avvalo «Tizim» tushunchasini aniqlab olishni taqozo qiladi. Chunki bu tushuncha metodologik ahamiyatga ega bo'lib, tizimning xususiyatlari u orqali aniqlanadi. «Tizim» tushunchasi aniqlanmasa, mazkur metodning boshqa metodlardan farqi, uning parametrlari, tizimli qonuniyatlar va tizimni takomillashtirish masalalarini aniqlash mumkin bo'lmay qoladi. «Tizim» tushunchasidan keyin uni tashkil etuvchi, yaxlitligini ta'minlovchi qismlarini aniqlash lozim bo'ladi. «Tizim» to'g'risida biz fikr yuritganda umuman «tizim» (ijtimoiy, texnik, tabiiy)larni emas, balki faqat «pedagogik tizim»ni nazarda tutamiz. Hamma tizimlar, jumladan «pedagogik tizim» uchun ham umumiy ularning turli bir-biriga bog'liq o'zaro aloqadorlik va bog'lanishlar ega umumlashtiruvchi xususiyat va qonuniyatlarga ega tashkil etuvchi qismlarni tushunish kerak. Bu tashkil etuvchi qismlar tizimda

alohida funksional vazifalarni bajaradi hamda umumiy tizimni yaxlitligini ta'minlash bilan birga umumiy vazifa jihatidan o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Tizimni tadqiq qilish maqsadiga ko'ra uning har bir tarkibiy qismi alohida komponent sifatida qaralishi va tadqiqot ob'ekti bo'lishi mumkin. Pedagogik tizim deganda tuzilishi (struktura) va bajaradigan vazifasi jihatidan bir-biriga o'zaro bog'lanishda bo'lgan ta'lim-tarbiya maqsadlariga xizmat qiluvchi tizimni tushunishi kerak. Tuzilishi (struktura) uning muhim tashkil etuvchi komponenti hisoblanadi. Uning qismlari birligi tizimning o'ziga xosligini, boshqalardan farqini bildiradi. Pedagogik tizimning tashkiliy tuzilishini tahlil qilishdan oldin, ularni tuzilishi, paydo bo'lishi va faoliyatini ko'rsatishini bilish kerak. Pedagogik tizimlar jamiyatda unga ehtiyoj paydo bo'lganda tug'iladi. Masalan: jamiyatda ta'lim-tarbiyaga ehtiyoj maktab va o'qituvchilarni keltirib chiqardi. Hozirgi kunda mamlakatimiz ta'lim islohoti umumiy o'rta ta'lim bo'g'inida yangi o'quv yurtlari - akademik litsey va kasb-hunar kollejlarni keltirib chiqardi. Mustaqil Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimining umumiy maqsadi komil insonni shakllantirish. Bu umumiy maqsad har bir bo'g'in (ta'lim turlari) da o'ziga xos maqsadlarga bo'linadi. Hamma bo'g'indagi umumiy maqsadga funksional, ya'ni bajaradigan vazifasi jihatdan o'zaro bog'lanishda, aloqadorlikda bo'ladi. Bular uchun umumiy tomon maqsaddir. Demak, pedagogik tizim uchun struktura(tuzilish)dan keyin belgilovchi komponent (xususiyat) maqsad hisoblanadi. Pedagogik tizimlar uchun umumiy vazifa bilimlarni ijtimoiy tajribani avloddan-avlodga yoki ayni paytda yoshlarga yetkazish. Bilimlar malaka, ko'nikmalar tarzida yosh avlodga axborot tariqasida beriladi. Pedagogik tizimning yana bir muhim xususiyati axborot bo'lib, shu maqsadda pedagogik tizim yaratiladi. Pedagogik tizimni yaratish yana bir muhim masalani hal qilishni taqozo qiladi, ya'ni qo'yilgan maqsadga erishish yo'l va vositalarni, shakl va metodlarini ma'lum tarkib, kishilarga mo'ljallangan asosda amalga oshirish. Har qanday pedagogik tizim o'ziga xos pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalariga ega bo'ladi. Pedagogik vositalar insoniy va texnik tarzda bo'lib, ta'sir etishning kommunikativ vositasi bo'lib hisoblanadi. O'z navbatida pedagogik tizim uchun bu komponent

ham muhim hisoblanadi. Pedagogik tizim ma'lum o'quvchilar tarkibi va ularni ta'lim-tarbiyalashga tayyorlangan pedagoglar bo'lganda tashkil etiladi. Bular pedagogik tizimning sub'ektlari bo'lib, ular o'zaro sub'ekt-ob'ekt, ob'ekt-sub'ekt munosabatlarida bo'lib, tizimning maqsadini amalga oshirishda asosiy komponent hisoblanadilar. Bular pedagogik tizim maqsad va vazifasining o'zgarishiga olib keladi. Misol uchun ta'lim jarayonida uzoq vaqt o'qituvchi asosiy belgilovchi bilim manbai, bilim o'rgatuvchi, o'quvchi esa passiv bilim o'rganuvchi bo'lib keldi. Mustaqillik sharoitida erkin, ozod shaxsni tarbiyalash maqsadi ta'lim jarayonini yangi metodologik asosda qurishni, uni o'qituvchi hukmronligidan xalos qilishni taqozo qiladi. O'quvchi mutloq tobelikdan teng, hamkor sifatida insoniy g'ururi, shaxsini poymol qilmaslik asosida o'qitish jarayonini insonparvarlashtirishni taqozo qilmoqda. «Mubodo biror o'quvchi o'qituvchiga e'tiroz bildirsa, - deydi I.Karimov, - ertaga u hech kim havas qilmaydigan ahvolga tushib qoladi. Maktablardagi jarayonda o'qituvchi hukmron. U boladan faqat o'zi tushuntirayotgan narsani tushunib olishni talab qiladi. Prinsip ham tayyor: «Mening aytganim -aytgan, deganim-degan». O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, amalda tajribalarimizda unga rioya qilmaymiz Pedagogik tizimni tahlil yoki tadqiq qilganda yuqorida keltirilgan komponentlar uning tuzilishi, yaxlitligini ta'minlashini ta'kidladik. Ammo shuni ham aytish lozimki, pedagogik tizimni ayrim-ayrim komponentlari ham alohida ob'ekt sifatida qaralishi mumkin. Pedagogik tizimlarni o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilishda umumiylikdan xususiylikka va aksincha yondashish mumkin. Tizimli yondashuv mohiyati shundaki, analitik va sintetik (alohidalik-umumiylik) tarzda tadqiq qilish orqali tizimni batafsil o'rganish, ochilmagan, foydalanilmagan imkoniyat va komponentlarni shu asosda ochish mumkin bo'ladi. Pedagogik tizimlar faqat ularni tashkil etuvchi qismlar jihatidan emas, balki uni funksional komponentlar jihatidan ham talqin qilish lozim. Bunda uni tashkil etuvchi qismlar bajaradigan vazifalari,

maqsadi jihatidan o'zaro bog'lanishlarda bo'lib, tizimdagi sub'ektlar o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda ham tizimda tashkil etuvchi qismlar tashkiliy va maqsadlarni amalga oshirish funksional munosabatlar shakllanadi. Tizimda tashkiliy tuzilish va funksional komponentlar uning faoliyati asosida bo'lib, bir butunligi, yaxlitligini ta'minlaydi. Shuning uchun ilmiy tadqiqot olib boruvchi o'z maqsadiga ko'ra ularni yo tuzilishi(struktura), yo bajaradigan vazifasi jihatidan o'rganishi mumkin. Pedagogik tizim ham ijtimoiy bo'lib, jamiyatning tarkibiy qismi, u bilan bog'liq, unga xizmat qiladi. O'z navbatida o'zi bir necha nisbatan mustaqil pedagogik tizimlarni o'z ichiga oladi. Pedagogik tizim mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimidan iborat bo'lib, o'z navbatida bir necha bo'g'inlarga, tizimlariga bo'linadi. Bularning har biri o'z tuzilishiga ega bo'lib, jamiyatda komil insonni shakllantirishning ma'lum vazifasini bajaradi. Tizimlarni o'rganish uchun eng avvalo ularni boshqa tizimlardan farq qiluvchi belgilarini aniqlash lozim. Buning uchun tashkil etuvchi komponentlarini, maqsad va vazifasini, mazmun va mohiyatini aniqlash lozim. Masalan, Xalq ta'limi tizimi uchun xarakterli komponentlar uning maqsadi va vazifasi, unda ishtirok etuvchi sub'ektlar faoliyati, o'quvchi va ularga ta'sir ko'rsatuvchi o'qituvchilar tarkibi hamda ular faoliyatini va ta'sir ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ta'lim-tarbiya vositalari, ta'lim-tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi sub'ektlar muloqoti hamda ta'lim-tarbiyaning natijasidan iboratdir. Tizim uchun eng xarakterli xususiyati va uning tuzilishi bilan birga maqsad va natijadir. Maqsad va natija tizimni tashkil etuvchilarning eng muhimi bo'lib, uni tashkil etuvchi bosh komponent hisoblanadi. Xalq ta'limi tizimi uchun bosh maqsad komil insonni shakllantirishdir. Natija esa komil insonni shakllanganlik darajasi. Ko'p komponentli xalq ta'limi tizimining har bir bo'g'ini komil insonni shakllantirishning ma'lum vazifalarini hal qiladi. Xalq ta'limi tizimi deganda, har bir mamlakatning iqtisodiy-siyosiy, milliy-tarixiy, madaniy shart-sharoitlari ta'sirida shakllangan ta'lim-tarbiya muassasalari majmuini tushunish kerak. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, xalq ta'limi tizimi mamlakatimizdagi uzluksiz ta'lim tizimidan iboratdir. Mamlakatimizdagi uzluksiz ta'limning tuzilishi maqsad, vazifalari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 9-18

moddalarida hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning 3,3 3.3.1. 3.3.2: 3.3.3. bandlarida belgilab berilgan. «Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash asosiy, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir», - deyiladi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida (28,1,4,3) .

Uzluksiz ta'lim quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

-maktabgach.ata'lim;

-umumiy.o'rta.ta'lim;

o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya muassasalari.

Mamlakatimiz uzluksiz ta'limining bu bo'g'inlari o'zaro bog'liq va jamiyatda bajaradigan vazifasi jihatidan o'zaro munosabatlarda bo'lib, bir-biriga vorislik tariqasida faoliyat ko'rsatadi. Ularning komil insonni shakllantirishdagi umumiy maqsadda har birining o'rni va vazifasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilab berilgan. Ularning har birining o'ziga xos tomonlari, o'z tuzilishi, maqsad va vazifalari mavjud bo'lib, bir-biriga nisbatan mustaqildir. Shuning uchun ular faoliyatini boshqarish va rahbarlik qilish o'ziga

xos xususiyatlariga ega. Shu bilan e'tirof etish kerakki, ularni boshqarishda umumiy qonuniyatlar, tamoyillar, shakl va metodlar mavjudligini ham tan olish zarur. Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish va unga rahbarlik qilishning metodologik asosini I.Karimov asarlari, uning nazariy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi qabul qiladigan qaror va qonunlar, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va shu asosda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi o'rta umumiy ta'limni tashkil etish to'g'risida»gi 13 may 1998 yil 203-son va «O'zbekiston Respublikasi akademik litsey va kasb-hunar ta'limini tashkil etish to'g'risida»gi 13 may 1998 yil 204-son qarorlari tashkil etadi. Uni tashkiliy metodik asoslarini O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining buyruqlari, ilmiy-metodik ko'rsatmalari, viloyat, shahar, tuman hokimlarining ko'rsatmalari hamda ta'lim muassasalarining Ustavlari belgilab beradi. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 1997 yil 29 avgust Oliy Majlisning IX sessiyasida I.Karimovning «Barkamor avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» ma'ruzasida bayon qilingan fikrlar asosida qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 203 va 204-son qarorlari yuqoridagi ikkita hujjatni hayotga tatbiq qilish maqsadida qabul qilingan bo'lib, ular asosida ta'lim muassasasining namunaviy ustavi ishlab chiqilgan. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning maqsadi «fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning qonuniy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishidan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan»(27,1,20). Shu bilan birga mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etish, boshqarish, unga rahbarlikning siyokiy, huquqiy, yuridik asoslarini belgilab beradi. Mazkur hujjatlar ta'lim jarayoniga daxldor bo'lgan davlat, nodavlat korxonalar, muassasalar, mutasaddi shaxslarning burch va vazifalarini belgilab beradi. Ushbu qonun besh bo'lim, 34 moddadan iborat bo'lib, bevosita «Ta'lim tizimini boshqarish» 25-29 moddalar ifodalangandir. Bu moddalarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlari (27-modda). Ta'lim muassasasini boshqarish(28-

modda). Ta'lim sohasini davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar (29-modda)lardan iborat. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida boshqarish masalalari 4 bo'lim 4,6,7,8,9 moddalarida o'z ifodasini topgan. Bu hujjatning 4,6 bo'limi «Ta'limni boshqarish» deb nomlanadi. Unda ta'kidlanadiki, «Uzluksiz ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlashni davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tarkibiy jihatdan o'zgartirish va ularni izchil rivojlantirish, davlat yo'li bilan» boshqarib boriladi. Barcha darajadagi ta'lim boshqaruv organlarining vakolat doiralari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga muvofiq belgilanadi. Ta'limning normativ huquq bazasi rivojlantiriladi. Moliya xo'jalik faoliyati olib borish hamda ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv yurtlarining huquqlari kengaydi va mustaqilligi ta'minlanadi. Ta'lim muassasalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi va hamda akkreditatsiyalanadi. Akkreditatsiya yakunlariga ko'ra ta'lim sohasiga faoliyat ko'rsatish huquqi beriladi. Pedagogik jarayon muayyan tizim hisoblanadi. Shu jarayonni boshqarish, ya'ni ta'lim muassasasi ichki boshqaruvi ham murakkab tizim sifatida ikkita tizim : boshqaruvchi direktor(uning o'rinbosarlari, o'qituvchilar metod birlashma rahbarlari, jamoat tashkilotlari, o'quvchilar jamoasi rahbarlari) va boshqariluvchi(pedagoglar jamoasi, o'quvchilar jamoasi) lardan tashkil topadi va ular doimo mustahkam birlikda va o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Bular o'rtasidagi bog'lanishlarni chuqur tushunish va ular imkoniyatidan foydalanish ularga tizim sifatida qarashni taqozo qiladi. O'quv yurti ichki nazoratiga tizim sifatida yondashish pedagogik jarayon qonuniyatlarining mohiyatini va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'lanishlarni tushunish, ular harakatini o'zaro muvofiqlashtirish imkoniyatini beradi. Har bir tarkibiy qismning umumiy tizimdagi o'rnini alohida aniqlash, shu bilan birga ularni uyg'unligi, bir butunligini chuqur tasavvur qilish asosida yaxlitligini ta'minlashga imkon beradi. Bunda pedagogik jarayon har tarkibiy qismning o'z funksiyasini bajarishi butun tizim maqsadiga erishishini ta'minlovchi mexanizm sifatida qarash lozim. Shu asosda pedagogik jarayon sub'ektlari rahbarlar, pedagoglar va o'quvchilar jamoasi

harakatlarining maqsadi, mazmuni, vosita va metodlarini umummaqsadga erishishi uchun yo'naltirish mumkin bo'ladi. Ta'lim tizimiga bunday yondashish o'z-o'zidan emas, balki rahbarning boshqarishning nazariy asoslarini bilishi va undan amaliy faoliyatga foydalana olishi bilan shu asosda boshqarish maqsad va vazifalarining, metodlarining yaxlitligini ta'minlashini taqozo qiladi. Ta'lim tizimini boshqarishga tizimli yondashuv ichki nazoratda pedagoglar va o'qituvchilarning muvofiqlashtirilgan samarali faoliyatini, tarbiyaga va tarbiyalanuvchilar harakatlarining bir-biriga mosligini tashkil etish zaruriyatidan kelib chiqadi. Axborot to'plash tashkiliy-pedagogik, o'zaro muloqotni jamoa jipslik darajasiga mos keladigan shaklini belgilash va shu asosda jamoaga ma'muriy, axloqiy, ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatishning qulay shaklini belgilash asosida o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Olib borilgan tadqiqot ishlari va uzoq vaqt ta'lim muassasalari bilan ishlash shuni ko'rsatadiki, ular ta'lim muassasasi faoliyatini yaxlit bir pedagogik tizim sifatida emas, balki har bir tarkibiy qismni alohida-alohida tasavvur qilib ish ko'riladi. Bunday yondashishga pedagogik jamoa faoliyatini, ta'lim-tarbiya jarayonini umumiy maqsadga yo'naltirish ancha qiyin bo'ladi. Alohida kishilar jamoa faoliyatining imkoniyatlarini aniqlash va undan to'liq foydalanish uchun ta'lim muassasasi rahbari hamda har bir o'qituvchi pedagogik tizim haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi lozim.

Buning uchun rahbar muttasil o'z ustida ishlashi, izlanuvchan bo'lishi, boshqarish va rahbarlikdagi ilg'or tajribalarni o'rganishi va o'z faoliyatida qo'llashi muhimdir. Pedagogik tizimni boshqarish jamiyatning boshqa sohalarini boshqarishga qaraganda juda murakkab va ko'p qirralidir. Buning boisi shuki, bu sohada eng qimmatli hisoblangan inson shaxsi - insonni o'zi shakllanadi. Inson ta'lim-tarbiyasida yo'l qo'yilgan xato jamiyat uchun juda ko'p iqtisodiy, axloqiy va ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Bir mutafakkir aytgan ediki, oltindan qimmatbaho zebziyinat buyumini yasayotgan zargar xato qilsa, u oltinni qayta eritib, buyumni yangidan yasashi mumkin. Ammo inson tarbiyasida qilingan xato

jamiyat oldida juda katta jinoyatdir. Shuning uchun har bir pedagogik tizim sohasida ishlaydigan odam va rahbar ta'lim-tarbiya jarayonining qonuniyatlarini chuqur bilish bilan birga boshqarish ilmini ham egallashi lozim. Bu ilm unga ta'lim-tarbiya jarayonini, pedagoglar faoliyatini to'g'ri tashkil etish, yagona maqsadga yo'naltirish kalitini beradi. Hozirgi zamonda pedagogik tizim mamlakatimizda yaxlit uzluksiz ta'lim tizimi sifatida Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, viloyat, shahar, tuman hokimliklari ko'rsatma, farmon qarorlari asosida boshqariladi. Ammo bevosita boshqarish va rahbarlik pedagogik tizimga Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Pedagogik tizimning maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya muassasalari - Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidadir. O'rta maxsus ta'lim, kasb-hunar, Oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim - Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufida. Pedagogik kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi o'z yo'nalishlari bo'yicha har ikkala vazirlik tasarrufida bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «Bitiruvchi kurslar uchun o'qitiladigan yangi kurs haqida»gi 1999 yil 20 yanvar 16-sonli buyrug'ida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturidagi vazifalarni bajarish, bozor munosabatlarga bosqichma-bosqich o'tish davrida mutaxassislarning boshqaruv va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida 1999-2000 o'quv yilidan boshlab bitiruvchilar uchun «Tashkilotchilik va boshqaruv qobiliyatlarini shakllantirish» kursini 20 soat miqdorda barcha oliy o'quv yurtlarida o'qitish kiritilgan. Mazkur kursni o'qishga amaliy tajribali, yuqori malakali professor-o'qituvchilar jalb qilinib, attestatsiya sinovi bilan yakunlash belgilangan. Ushbu kurs bo'yicha bitiruvchi talabalarga beriladigan diplom ilovasiga mazkur kursning o'tilganligi yozib qo'yiladi. Bu o'z navbatida yosh mutaxassislarni boshqarishni dastlabki ko'nikmalarini egallashi uchun asos bo'ladi. Ammo ta'lim muassasalari rahbarlari dastlabki ko'nikmalar bilan emas, balki fundamental, ya'ni ta'limni yaxlit bir tizim sifatida qarab, boshqarish va rahbarlikning o'z mahoratlarini pedagogik jamoa

xususiyatlarini inobatga olib tashkil etishning maqsad va vazifalari, metodlarini ishlab chiqishlari lozim.

1.3. Ta'lim tizimida samaradorlik va tejamkorlik tamoyillaridan foydalanish

Boshqarishning nazariy metodologik asoslarini belgilash uning asosida yotuvchi muhim talablarni ham aniqlashni taqozo qiladi. Har qanday jarayon, fan, nazariya ma'lum tamoyilga asoslanadi. Pedagogik tizimni boshqarish ham bundan mustasno bo'la olmaydi. «Prinsip» so'zi lotincha bo'lib, principinm-boshlang'ich, negiz degan ma'noni beradi. Biron-bir nazariya ta'limot, fan, dunyoqarash, g'oya, siyokiy tashkilot, jamiyatning asosini qoidalar, prinsiplar ifodalaydi. Mazkur fan, ta'limot, shu qoidalar asosida ish ko'radi. Shu bilan birga Biron asbob, mexanizmning tuzilishi, ishlash prinsipi, tub xususiyatlarini xam ifodalashi mumkin. Inson dunyoqarashi, o'ziga va voqelikka munosabatini belgilovchi e'tiqodi, xulk-atvori normalari sifatida ham namoyon bo'ladi. SHaxsning ma'lum g'oyaga e'tiqodi, ijtimoiy-siyokiy munosabatlarga ma'lum pozitsiya egallashi u asoslanadigan prinsip tashkil etadi. Inson shu pozitsiyadan voz kecha olmaydi. Voz kechganida u subutsiz bo'lib qoladi. Prinsiplar ta'lim sohasiga ham keng amal qiladi. Masalan. Ta'lim prinsiplari, tarbiya prinsiplari mavjud. Bundan tashqari ta'limga rahbarlik qilish, boshqarish hamda tashkil qilishda ham ma'lum prinsiplarga rioya qilinadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotining nazariy asosi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uning modeli belgilangan. Shu asosda uzluksiz ta'limni tashkil eti shva rivojlantirish prinsiplari ham ishlab chiqilgan. Bundan tashqari Respublikamizda ta'limga rahbarlik va boshqarishning davlat siyokati prinsiplari ham ilmiy asoslangandir.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonunning 3-moddasi «Ta'lim sohasidagi davlat siyokatning asosiy prinsiplari» deb nomlanib, 9 ta prinsipda o'z ifodasini topgan.

Chunonchi «Ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor» deb e'lon qilinadi deyilgan.

Ta'lim sohasidagi davlat siyokatini asosiy prinsiplari:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterida ekanligi;
- ta'limning o'rta-maxsus, kasb-hunar kolejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterida ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo'lishni va iste'dodni ragbatlantirish;
- ba'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvni uygunlashtirish (27, 20).
Mazkur prinsiplar pedagogik tizimning hamma bo'g'inlari uchun dasturamal hamda shu sohalarning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida qayd qilingandek, pedagogik tizimni boshqarish ham ma'lum prinsiplarga asoslanadi. Bu prinsiplar quyidagilar:

- demokratik;
- ilmiylik;
- yakkaboshlik va jamoatchilik;
- ijroni tekshirish;
- rejalashtirish;
- samaradorlik va tejamkorlik.

Respublikamiz siyokiy rivojlanishida belgilovchi-suveren, demokratik, fuqarolik jamiyati qurish ustuvor bo'lib hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, pedagogik tizimni boshqarishda demokratik prinsip ijtimoiy rivojlanish mohiyatidan kelib chiqadi. Biz qurayotgan fuqarolik jamiyati ham fuqarolarning tashabbuslariga mustaqil va intizomli faoliyatlariga asoslanadi. Shuning uchun ta'lim tizimida demokratiyani takomillashtirishning samarali yo'llarini qidirib topish boshqarishning eng muhim muammosidir. Chunki boshqaruvning umumiy qonuniyatlari alohida shaxslar faoliyati orqali amalga oshirilgan ekan, ularga keng imkoniyatlar yaratish, mustaqillik berish asosida tashabbusini rivojlantirish mumkin. Bu esa o'z navbatida fuqarolarni mavjud Mustaqillik bergan huquq va imkoniyatlardan to'g'ri, oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashni ham taqozo qiladi. Demokratiya, mustaqillik, erkinlik darajasi aholining ma'naviy, madaniy, saviyasi, axloqiy tarbiyaganlik darajasi hamda yashayotgan muhitdagi shakllangan adolatlariga ham bog'liqdir. Shuning uchun «Demokratizm uchun ilmiy asoslangan pishiq-puxta tashkiliy sharoit yaratib qo'yilgan bo'lmasa, demokratizmga zid bo'lgan anarxiya tomonga «og'ish» sodir bo'lishi mumkin», -deydi M.Mirqosimov

(47). Demokratiya uchun yetarli zamin hozirlash, mehnatkashlarni jamoat ishlarini boshqarish ko'nikmalari ruhida tarbiyalash lozim. Demokratiya shoshma-shosharlik, xo'ja-xo'rsinga qo'llash ijtimoiy munosabatlarga putur yetkazishi, ma'lum boshkarish borasidagi yutuqlardan mahrum bo'lishiga olib keladi. Demokratiyani o'rniga anarxiya vujudga kelishini SSSR parchalangandan so'ng hamdo'stlik mamlakatlarida, chunonchi Rossiyada qurish mumkin. Mana shu sabablarga ko'ra demokratiya bobida jamiyat rivojlanish darajasiga mos keluvchi shaklini qo'llash muhimdir. CHinakam demokratiya maxalliy xususiyatlarini va maxalliy tashabbusni to'la-to'kis rivojlantirish imkoniyatlarini umumiy maksadga yo'naltirishni taqozo qiladi. Demokratizm ko'pchilik xoxish-irodasini inobatga olish, jamoa, yakka shaxs manfaatlarini umumxalk-yagona maksadga bo'ysundirish demakdir. Demokratizm prinsipi tashabbus va izlanishlarni jamiyat qonun-qoidalari, qabul qilingan tartib-intizomga qat'iy rioya qilish, intizomlilik va uyushqoqlikni uzviy birligi asosida boshkarishni tashkil etish demakdir. Demokratik prinsip xaddan ziyod markazlashtirish, shablon asosida ish qurishni inkor qiladi. Har bir ishda sharoitni hisobga olish ishni tashkil etishni xilma-xil usullaridan eng qulayini tanlash boshqarishda muvaffaqiyat garovi bo'la oladi. Ammo shu bilan birga demokratik tamoyili pedagogik tizimni boshkarishda yakka boshchilik bilan kollegialik-jamoatchilikni o'zaro omuxta qilishni inkor qilmaydi. Ilmiylik prinsipi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim modelining tarkibiy qismi sifatida fan qaraladi. Milliy modelda fan bilan ishlab chiqarishga keng o'rin berilgan. Buning boisi shuki, amalga oshirilayotgan ta'lim isloxotida ilm-fan belgilovchi bo'lib, bu jarayon ilmiy asosda amalga oshiriladi. Shuning uchun pedagogik tizimni boshqarishda ilmiylik tamoyili ham hozirgi sharoitda muximdir. Chunki shaxs shakllanishi, ta'lim-tarbiya jarayonlari nixoyatda murakkab va ko'p qirralidir. Bu jarayonlarning ilmiy asoslangan qonuniyatlarini bilmasdan ko'r-ko'rona yondoshish mutlaqo mumkin emas. Ilmiylik prinsipi haqida gapirar ekanmiz, boshkarish masalalarini ilmiy asosda hal qilish eng avvalo ilmiy tadqiqotning keng rivojlantirishni taqozo qilishni ta'kidlash lozim. Bu muammo yukorida ta'kidlanganidek ta'lim sohasi

uchun nihoyatda muhimdir. Ta'lim-tarbiyani boshqarishga doir keng qamrovli ilmiy tadqiqot tarmog'ini barpo etish lozim. Bundan tashkari ta'lim jarayonini murakkablashib borishi ham buni taqozo qiladi. Shuni e'tirof etish kerakki, ta'lim-tarbiya muammolarini pedagogik tizimning turli bo'g'inlarida tadqiq qiluvchi bir necha ilmiy-tadqiqot muassasalari mavjud. Bular ichida boshqarish va rahbarlik masalalarini maxsus tadqiq qiluvchi ilmiy muassasa yo'q. Pedagogik tizimni ilmiy boshqarish to'g'risida gapirar ekanmiz, shu tizimda band bo'lgan rahbarlarning yangilikka, ilmga intilishlari, ilg'or tajribalarni o'rganish, umulashtirish va yoyish ham muhim izlanish, yangilikni qo'lashga zamin hozirlaydi. Ta'lim tizimida mehnatni ilmiy asosda tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Bunda vaqtdan unumli foydalanish, ta'lim-tarbiya ishlarini sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarni dars jadvali, majlislarni qat'iy tartib asosida tashkil qilish muhimdir. Ta'lim muassasalarida har bir tadbirni belgilangan vaqtda aniq o'tkazish tartibini siklogramma asosida tashkil etish vaqt, kuchni, iqtisod qilishga olib keladi. Juda ko'p ta'lim muassasalari bu tajribaga amal qiladi. Ta'lim muassasasida mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning mazmuni ancha keng. Unga xodimlarning malakasini oshirish, ularni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yish, yangilikka intilish va uni ta'lim-tarbiyaga qo'llash kabi qator tadbirlar ham kiradi. Shu bilan birga ta'lim mazmunini takomillashtirishda o'qitishning texnika vositalaridan foydalanish ham muhimdir. Ta'lim muassasasi ish rejimini optimal tashkil etish, turli majlis, kengashlarni qat'iy rejalashtirish ham ortiqcha vaqt va kuchni sarflashdan saqlaydi. Ishni mohirona rejalashtirish, qat'iy tartib va mezonlar asosida olib borish ijobiy natija beradi. Boshqarishda yakkaboshchilik va kolegiallik (jamoatchilik) «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga ko'ra ta'lim muassasasini uning rahbari boshqaradi (20-modda) deyilgan. Demak, ta'lim muassasasi yakka boshchilik asosida boshqariladi. Ammo yakkaboshchilik jamoaviy (kollegiyalik)ni inkor qilmaydi. Maktab ustavida rahbarning burch va huquqlari bilan birga pedagogika kengashining ham vazifalari belgilangan. Tajriba ko'rsatadiki, ta'lim muassasasida to'g'ri boshqarishning eng ta'sirchan usuli, demokratiyani qo'llash, yakkaboshchilik bilan jamoatchilikni o'zaro omuxta qila

olishdir. Jamoatchilik yo'li bilan jamoa faoliyatiga doir qarorlar birgalikda kengashib, maslaxatlashib qabul qilinadi. Shu bilan birga ta'lim muassasasida har bir xodimning ishi va vazifasi aniq, qat'iy belgilanishi lozim. Jamoatchilik har bir shaxsning mas'uliyatini, o'z ish joyida, o'ziga yuklangan ishni aniq, sifatli bajarishni inkor qilmaydi. YAKkaboshchilik rahbarlarning shaxsiy namunasi, o'ziga va boshqalarga talabchanligini, har bir jamoa a'zosi xaqida g'amg'o'rlik qilishni, qat'iy intizomiga rioya qilishni talab qiladi. Talab, tartib-intizom xodimlar uchun, buni rahbarga daxli yo'q, prinsipi umumiy ishga zarar keltiriladi. Shunday naql bor, boshliqlar kechikmaydilar, ular saqlanib qolishlari mumkin. Bu ish tartibi mas'uliyatsiz rahbar uchun o'ylab topilgandir. Rahbar uchun eng muxim narsa umumiy ish uchun shaxsiy javobgarlik, qat'iy intizom, o'ziga va boshqalarga talabchanlik. Ta'lim muassasasi rahbari ishni shunday tashkil etsa, ta'lim-tarbiya sifati yuqori bo'ladi. Respublikamiz ta'lim muassasalarida shunday namunali, uzoq vaqtdan beri halol, pok ishlayotgan rahbarlarni ko'plab topish mumkin. Boshqarishda ijroni tekshirish prinsipi juda muhimdir. Buning asosi vazifasi topshirilgan, bajarilishi lozim bo'lgan ish uchun har bir shaxsning mas'uliyatini sezish ruhida taribyalashdir. Tuzilgan rejalar, belgilangan tadbirlarning ijrosi tekshirilmasa ishda qat'iy va tartib-intizom bo'lmaydi. Bu o'z navbatida tashkilotchilik muassasa tomonidan, yuqori tashkilotchilar tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishini tashkil etish, ijrosini tekshirilishini nazorat qilishni yaxlit tizimni amalga oshirishni talab qiladi. Shu bilan birga ijroni tekshirishdan ko'zlangan maqsad ish, reja va belgilangan tadbirlarni amalga oshirishni barbod etish xavfini oldini olishdir. Ishda yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolarni aniqlash, ularni bartaraf qilish chora-tadbirlarni qurishdir. Ijroni tekshirishda ta'lim islohotiga doir qonun va qarorlarni, hukumat, vazirlik va hokimlarning bu boradagi qabul qilgan qarorlarni bajarilishini ta'minlashni tashkil etishni taqozo qiladi. Shu bilan birga ijroni tekshirishda qabul qilingan qaror, belgilangan tadbirlar tuzilgan rejalaridagi yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlashdir. Bu esa u yoki bu qarorga zarur tuzatishlar kiritish, bundan buyon bajariladigan ishlarga o'zgartirish kiritish asosida ishni takomillashtirishga asos bo'ladi, yo'l

qo'yilgan xato-kamchiliklarni oldini olish eski uslub o'rniga yangi ijobiy usullarni izlab topishga undaydi. To'g'ri tashkil etilgan, xolisona amalga oshiriladigan ijroni tekshirish barcha sohalarda belgilangan vazifalarni to'la bajarilishining garovidir. Qaror va ijroning o'zaro yaxlitligi to'g'ri rahbarlik va boshqarishning asosini tashkil etadi. Ijroni tekshirishni shu asnoda tashkil etish xodimlarga yuksak talabchanlik, qat'iyatlikni tarbiyalaydi. Bu prinsip kishilarni ish davomida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yechish, sabr-toqatli bo'lish ruhida tarbiyalaydi. Boshqarishda rejalilik prinsipi. Mazkur tamoyil boshqarish ishida ma'lum qat'iy tartib bo'lishini taqozo qiladi. Boshqarishda tasodifiy bir-biriga bog'lanmagan tasodifiy tadbirlar bo'lmasdan, balki aniq sharoitni, vaziyatni inobatga olish lozim. Ishning har bir bo'g'ini umumiy maqsadga, qat'iy uyg'unlashmog'i muhim. Chuqur o'ylab, bir-biriga qat'iy uyg'unlashgan tadbirlar boshqarishning ta'sirchanligini oshiradi. Bu ish ayniqsa hozirgi davrda xalq ta'limni milliy hamda islohot talablari asosida qayta qurilayotgan sharoitda juda zarurdir. Rejalik mahalliy, ya'ni ta'lim muassasasi qabul qiladigan tadbirlarni hukumat, mahalliy hokimiyatlar qarorlari bilan uyg'unlashtirishni taqozo qiladi. Rejalashtirishda ishning mohiyatini bilish, maqsadini mahorat bilan uyg'unlashtirish juda muhimdir. Ta'lim muassasasi ish rejasi aniq maqsadni, sharoitni hisobga olib tuzilishi lozim. Rejada aniqlik, muntazamlilik, izchillik bilan o'zaro bog'liq holda amalga oshirilmog'i juda xam muhimdir. Shu bilan birga rejada har bir tadbirni bajaruvchi shaxs, uning bajarilish muddati va shakli, ijroni bajarish, yakunlash tartibi o'z ifodasini topishi zarur. Boshqarishda samaradorlik va tejamkorlik prinsipi. Har qanday sohani jumladan pedagogik tizimni boshqarish vaqt, kuch, moddiy va ma'naviy vositalarni tejashga asoslanadi. Shuning uchun jamoa oldiga qo'yilgan maqsadga ham kuch, vaqt, mablag, vositalarni tejab erishish muhimdir. Boshqarish va rahbarlikning maqsadi xomashyo, materiallar, jihozlardan ajratilgan mablag'lardan unumli foydalanishga qaratilishi kerak. Eng muhim vaqtni tejash, qisqa vaqtda yuqori mehnat unumdorligi asosida yuqori natijaga erishishdir. Mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib, yuqori samaradorlikka erishish mazkur sohani chuqur bilishni taqozo qiladi. Pedagogik tizimni boshqarishda

ta'lim jarayoniga alohida e'tibor berish kerak. Yuqori samaradorlikka erishish keltirilgan hamma tamoyillarni yaxlit holda qo'llashni taqozo qiladi. Ular mahkam zanjir kabi bir-biriga uyg'unlashganda yuksak samara va tejamkorlikka erishish mumkin bo'ladi. Shunday qilib, boshqarish prinsiplari asosiy talablar bo'lib, ular umumiy qonuniyatlarda o'z ifodasini topadi. Boshqarish jarayonda va uni tashkil qilishda muqarrar ravishda ularga rioya qilish kerak. O'z navbatida prinsiplar boshqarish maqsadida va qonuniyatlari bilan uzviy bog'liq amal qiladi. Prinsiplar tamoyil asosiy talab sifatida jarayonga ta'sir ko'rsatadi. Prinsiplarni zaruriyat yoki hodisalar qonuniy ifodasi deb qarash mumkin. Boshqarish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish yoki biz asos qilib olgan tizimli yondashuv uning qonuniyatlariga ham amal qilishni taqozo qiladi. Pedagogik jarayonlar yaxlit tizim sifatida bir-biriga bog'liq hodisalarning sabab va oqibat tarzida rivojlanishida namoyon bo'ladi. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik hodisalar ma'lum qonuniyatlar asosida o'zaro bog'liq bo'ladi. Bu qonuniyatlarni, ta'lim-tarbiya ilmiy asoslarni egallash juda muhimdir. Har bir pedagogik hodisa ma'lum sabablarga ko'ra paydo bo'lib, ma'lum natijaga olib keladi. U yoki bu pedagogik jarayon yoki hodisaning keltirib chiqargan sabablarini aniqlash ularni faqat bilib qolmasdan, ijobiyning ta'siridan foydalanish, salbiylarini esa oldini olish imkoniyatini beradi. Shu asosda pedagogik jarayonni ilmiy asosida boshqarish imkoniyati kuchayadi. Hodisalar o'rtasidagi muayyan zaruriy munosabatlar ichki bog'lanishlardan kelib chiqadi. Narsa, hodisalarning birligi o'zaro aloqadorligi ularning mohiyatini bilish bosqichlaridir. Qonun hodisalar bog'lanishidagi mohiyatli narsadir. Ichki barqaror boshlanishlar demakdir. Bu jihatdagi qonun va qonuniyat yaqin hisoblanadi. Qonun narsa hodisalar o'rtasidagi munosabatda qonuniyatli bog'lanishlar muayyan sharoitlar albatta zaruriy kuch bilan amal qiladi. Qonuniyatli bog'lanishlar hodisalarning sababini taqozo qilishning natijasidir. Bu hodisalarning ma'lum muntazamligini, izchilligini ifodalaydi. Qonuniyatning o'ziga xos tomoni ma'lum muntazamlilik izchillikka namoyon bo'ladi. Qonuniyat muayyan sabablari bilan taqozo qilingan zaruriy jarayondir. Qonuniyat jarayonda bir emas bir necha qonun amal qiladi. Qonuniyatli bog'lanishlarning muhimligi va zarurligi qonunning

boshqa xususiyatlarini ham belgilab beradi. Qonun esa hodisalardagi umumiylikdir. Buning ma'nosi shuki, qonunda ifodalovchi muayyan zaruriy bog'lanish ayrim juz'iy hodisalargagina xosdir. Tabiat va jamiyat qonunlari shuning uchun ham qonunki, bu qonun umumiylikni ifodalaydi. Ma'lum sharoit va sabablar bo'lganda hamma joyda hamisha tegishli hodisalarni, natijalarni qat'iy zaruriyat tariqasida keltirib chiqaradi. Qonuniyat qonunga nisbatan ancha keng va narsa, hodisalar o'rtasida muntazamlilik va izchillikni ifodalashi bilan farq qiladi. Shuni e'tirof etish kerakki, bu muhim tushunchalar pedagogik jarayonlarda namoyon bo'lishi alohida tadqiq qilinmagan. Pedagogik jarayonlarning mohiyatini chuqur anglash, ularni tizimli tadqiq qilish pedagogik jarayon qonun va qonuniyatlarni alohida va yaxlitlikda o'rganishni zaruriyatga aylantiradi. Ta'lim tizimini boshqarish har qanday ijtimoiy jarayonlar kabi ma'lum qonuniyatlarga ega. Bu qonuniyatlar ma'muriyatning boshqarish faoliyati orqali amalga oshiriladi. Boshqarish qonuniyatlarini bilish ta'lim muassasasi rahbariga uni ilmiy asosda tashkil etish imkoniyatini beradi. Ilmiy boshqarish-bilish tushunish, foydalanish va qonuniyatlarni namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratishni va amaliyotga ularga rioya qilishni taqozo qiladi.

Ta'lim tizimini boshqarish mustahkam mohiyatli umumiy takrorlanib turuvchi zaruriy ob'ektiv bog'lanish va munosabatlarni ifodalaydiki, ular boshqarishni amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Ta'lim tizimidagi qonuniyatlarni to'liq va batafsil bayon qilishdan saqlangan holda quyidagilarni keltirishni lozim deb topdik.

2.3 Ta'lim tizimi Boshqarishni turlari

Boshqarishda tahliliy (analitik) qonuniyat. Ta'lim tizimini to'g'ri va ilmiy boshqarish, chuqur tahlilsiz amalga oshirilishi mumkin emas. Bu yaxlit tizimni uni tashkil etuvchi qismlarga ajratish va ularda qonuniyatning o'ziga xos namoyon bo'lishidir. Bu qonuniyat umumiy tizimda quyidagicha namoyon bo'ladi:

Ta'lim muassasasi faoliyatidan o'tgan o'quv yilidagi yutuq va kamchiliklar qanchalik chuqur tahlil qilinadi, unda normativ va direktiv hujjatlar talabi qanchalik bajarilganligi aniqlash kelasi o'quv yilida muassasa faoliyatini yaxshilashga asos bo'ladi;

- jamoaning joriy o'quv yilidagi erishgan natijalari to'g'ri va aniq tahlil qilinsa mazkur o'quv yili ish rejasi real, aniq hayot talabiga javob berishi mumkin;
- o'quv yilining chuqur har tomonlama tahlili kelasi o'quv yilida ichki nazoratni to'g'ri belgilash va rejalashtirishga asos bo'ladi;
- ichki nazoratning ta'sirchanligi chuqur tahlilga to'g'ri mutanosiblikdir;
- tahlilning tezkorligi va chuqurligi, asoslanganligi tartibga solish vazifasining foydali ish koeffitsiyentini oshiradi;
- ta'lim muassasasi rahbari boshqarishning mohiyatiga qancha chuqur kirib borsa, uning faoliyati samarali bo'lib boshqaradigan sohani bir holatdan ikkinchisiga o'tish sifat jihatdan yuqori bo'ladi. Shunday qilib, boshqarishga tahliliy yondashishning ilmiy asoslanganligi, chuqurligi, mohiyati, zaruriy bog'lanishlarni anglash imkoniyatini berib, boshqarishda qonuniyat sifatida amal qiladi.

Boshqarishning maqsadga qaratilganligi. Insonning har qanday faoliyatining yo'nalishini, xarakterini uning maqsadi belgilaydi. Maqsad xuddi qonundek, harakatning usulini belgilaydi. Boshqarish ham inson faoliyatining o'ziga xos sohasidir. Bu qonuniyatning mohiyati shundaki, boshqarishda maqsadni to'g'ri,

aniq belgilash uning natijasining samarador va yuqori bo'lishiga olib keladi.

Buning uchun quyidagilar muhimdir:

- boshqarish maqsadini belgilash, uning mazmuni va boshqarish usul, vositalarini optimal belgilash imkoniyatini beradi;
- boshqarish bo'g'inlarida aniq maqsadni belgilash umumiy tizim maqsadini aniqlashga asos bo'ladi;
- rahbarning boshqaradigan tizim maqsadini chuqur tushunishi, uni umum jamiyat maqsadi bilan muvofiqlashtira olishi boshqarishda taktik va strategik tomonlarni hisobga olib, istiqbolni belgilashiga zamin hozirlaydi.

Boshqarishning uzluksizligi. Ta'lim tizimi uzluksiz bajaradigan vazifasi jihatidan bir-biriga bog'liq umumiy maqsad-komil insonni shakllantirishni amalga oshiradi. Bunda har bir bo'g'in o'z vazifasiga ega.

Belgilangan maqsad va vazifalarini bajarish birdaniga, ayni bir paytda va bir martada amalga oshmaydi. Maqsad va vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshdi va har bir bosqichda takrorlanadi. Ular uzluksiz zanjir sifatida bir holatdan ikkinchi holatga o'tish va takrorlanish tariqasida davom etadi. Shuning uchun har bosqich uchun uzluksiz axborot olish, undagi o'zgarishlarni aniqlash va shu asosda ta'sir ko'rsatishni talab qiladi. Axborotni uzluksiz tahlil qilish va shu asosida boshqarishga doir qaror qabul qilish lozim. Ta'lim muassasasi jamoasi hayotidagi va ichki nazorat sohasidagi o'zgarish ikki tomonlama bo'lib, ularni tahlil qilish, o'rganish ichki nazoratning hamma bosqichlariga amalga oshiriladi.

Boshqarishning davriy (siklik)ligi. Pedagogik jarayonlarni boshqarish texnologik jihatdan takrorlanuvchi xarakterga ega. Shuning uchun ularni boshqarish ham

ma'lum siklik boshqarish jarayonlari tarzida namoyon bo'ladi. Davriylik va taraqqiyotning umumiy qonuniyati sifatida boshqarish sohasida o'ziga xos tarzda amal qiladi. Davr yoki sikl tizimda takrorlanib, har bir bosqichda tizimning yangi holatiga namoyon bo'ladi. sikliy takrorlanishda vorislik, ya'ni tizimning bir holati o'rtasida o'zaro bog'liqlik va yangi hodisaning paydo bo'lishi sodir bo'ladi. Boshqarish jarayonlarining uzluksiz-yaxlitligi doimo o'zgarishsiz amalga oshmaydi. Uning siklik rivojida aloqa va munosabatlar doimo takrorlanadi.

Boshqarishda ritmik qonuniyat. Ta'lim tizimiin boshkarish ko'p jihatdan ma'lum madaniyat va intizomni talab qiladi. Uning mohiyati shundaki, ma'lum boshqarish harakat va tadbirlari aniq belgilangan tartibda ayni bir vaqtda siklogramma asosida amalga oshirilishi kerak. Shu bilan birga amalga oshiriladigan boshqarish tadbirlari uzviy bog'liqligida aniqlik bilan amalga oshirilishi lozim. Ma'lum ritmga asoslanmay, xohlagan vaqtda turli tadbirlarni o'tkazish jamoada taranglik, vaqt va kuchni bekorga sarflashga olib keladi. Ritmik yondashish boshqarishda turli boshqarish faoliyatlarini uzviylikda maqsadli, o'zaro muvofiqlikda amalga oshirish demakdir. Yuqorida keltirilgan qonuniyatlar ta'lim tizimida ularni to'la tadqiq qilinganligini bildirmaydi. Aksincha ularni bilish eng murakkab va ko'p qirrali ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish vositasi sifatida xizmat qilishini eslatish, ularga tashhis qo'yish, xolos. Ta'lim tizimining boshqarish qonuniyatlari xuddi uning o'zidek o'zgaruvchan va tarixiy xarakterga ega. Ta'lim tizimini boshqarishning maqsad va vazifalari, mazmuni o'zgarishi bilan ular ham o'zgaradi. Ayrimlari o'z ahamiyatini yo'qotib yangilari shakllanib amal qiladi. Masalan. Mustaqillik sharoitida boshqarishda milliy meros va an'analardan kelib chiqish-qonuniyat darajasida ko'tarilmoqda.

III.Xulosa

Yurtimizning kelajagi, uning ertangi takdiri, ozod va obod jamiyat qurilishiga erishishimiz xam ma'lum ma'noda ta'lim mazmunini modernizatsiyalashga bog'liq. «Chunki ta'lim-tarbiya- ong maxsuli, lekin ayni vaktida ong darajasi va uning rivojini xam belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad- ozod va obod jamiyat barpo etib bo'lmaydi» degan Yurtboshimizning fikrlaridan ta'lim-tarbiya islohoti, yukori malakali kadrlar tayyorlashga erishish- mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Ta'lim jarayonini modernizatsiyalash va mazmunini boyitishda pedagogik imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishni yanada kuchaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

doimiy ravishda yangi tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ularni hayotga keng tatbiq etish;

- to'plangan ilmiy bilimlardan, pedagogik tajribalardan oqilona foydalanish;
- umumiy ta'lim maktablarida matematikaga oid bilimlarni oshirish uchun maxsus to'garaklar tashkil etishga alohida ahamiyat berish
- o'sib kelayotgan yosh avlodga erkin fikr bildirish, mantiqiy mushohada qilish ko'nikmalarini singdirish ta'lim-tarbiyaning samarali amalga oshishi garovidir.

Hozirgi davrda O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish jahon talablari darajasida olib borilishi uchun barcha chora-tadbirlar amalga oshirilyapti. Mustahkam ta'lim-tarbiya tizimini faqatgina pedagogika-psixologiya fanlarining

ilmiy- nazariy asoslari va amaliyotda tasdiqlangan qoidalar yordamida rivojlantirish mumkin. Buni albatta, shu sohadagi yangiliklar bilan aloqada amalga oshirishni talab etadi. Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish yoshlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qaror toptirishga qaratilgan.

Ilmiy izlanish jarayonida uzluksiz, yaxlit, o'zaro bog'liqlikni ta'minlovchi ta'lim to'laqonli amalga oshirilganda o'quvchi-yoshlarning ijodiy kobilyatlarini o'stirish, mustaqil mushohada yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchi shaxsining shakllanishi bilan o'zaro aloqada real pedagogik jarayonni vujudga keltirish mumkin. Bu jarayon turli ta'lim konsepsiyalari, nazariyalari yordamida loyihalashtirilishi va ta'lim muassasalarida tadbiq etilishi maqsadga muvofiq. Intellektuallik, mustaqil va erkin fikrga egalik, yuksak onglilik va intellektual madaniyatlik kabi hislatlarni shakllantirish hamda o'quvchilarni ob'ektiv va hissiy bilishlarini rivojlantirish uchun maxsus metodika, maxsus pedagogik ta'sir o'tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish orqali erishish mumkin.

Tadqiqot ishi natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik:

1. Ta'lim muassasalari faoliyatini maqsadli boshqarishda inson shaxsi, uning yaxlit va har tomonlama rivojlanishi uning atrof-olamga, jamiyatga munosabati, ijodiy kobilyati jarayonida amalga oshadi.
2. Ta'lim muassasalari faoliyati maqsadli boshqarilganda yoshlarning shaxs sifatida shakllanishiga keng imkoniyatlar yaratiladi.
3. Ta'lim muassasalari faoliyatini boshqarish reja asosida, tizimli va maqsadli olib borilsa, ulkan yutuqlarga erishish mumkin

IV.Foydallanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2003,
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. -T., 1997 .
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. -T., 1997 .
4. Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori - T.:SHarq, 1997,
5. Bo'riyev o. Ma'naviyat gultoji-T.: O'qituvchi, 1997.
6. Zaripov K. Ta'lim tizimini boshqarish.-Toshkent: Fan, 2005